MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

OTABOYEV TOLIB O‘ROLOVICH

A-ANALITIK FUNKSIYALARNING FUNKSIONAL XOSSALARI

01.01.01 – Matematik analiz

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

UDK: 517.54

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

OTABOYEV TOLIB O‘ROLOVICH

A-ANALITIK FUNKSIYALARNING FUNKSIONAL XOSSALARI

01.01.01 – Matematik analiz

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.3.PhD/FM745 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘iga (http://www.ziyonet.uz/) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sadullayev Azimbay** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Imomqulov Sevdiyor Akramovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Imomnazarov Xolmatjon Xudoynazarovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Xolon texnologiya instituti (Isroil)**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 15-iyun soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “__” ___________ kuni tarqatildi.
(2023-yil “__” __________dagi __-raqamli reyestr bayonnomasi).

B. A. Shoimqulov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari,
f.-m.f.d., professor

N. K. Mamadaliyev
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.f.d. (PhD)

R. N. Ganixodjayev
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida kompleks analiz, mexanika va fizika sohasida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda A-analitik funksiyalar nazariyasi masalalariga keltiriladi. Kvazikonform akslantirishlar va A-analitik funksiyalar nazariyasidagi masalalar tibbiyot fizikasi, biotexnologiya, aerodinamika hamda ishlab chiqarish kabi ko‘plab sohalarning tadqiqot obyektidir. A-analitik funksiyalar nazariyasi kompleks tekislik va ko‘p o‘lchovli kompleks fazoda qurilib, kompleks dinamik sistemalar, funksiyalar nazariyasi, mexanika va matematik fizika masalalarini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nazariyaning asosiy tushunchalari A-analitik funksiya, A-garmonik funksiya, A-logarifmik chegirma, Koshi integrali, Beltrami tenglamalar sistemasi kabilar mos ravishda, klassik analitik funksiyalar, garmonik funksiyalar nazariyasidagi kabi aniqlanadi, ammo ularning umumlashmasi bo‘lganligi va ko‘p o‘lchovli kompleks fazoning murakkab tuzilishi tufayli ulardan tubdan farq qiladi hamda zamonaviy matematikada dolzarb masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda kopmleks tekislik hamda ko‘p o‘lchamli kompleks fazoda A-analitik funksiyalar bilan bog‘liq masalalarni yechish va ularni amaliyotga tadbiq qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu masalalar A-analitik funksiyalar nazariyasi usullari orqali o‘z yechimini topib, ularning amaliy muammolarini hal qilishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. A-analitik funksiyalardan kompleks dinamik sistemalar, funksiyalar nazariyasi, mexanika va matematik fizikaning dolzarb masalalarini hal qilishda keng foydalaniladi. Bunda bir va ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik funksiyalar hamda ularning xossalari yordamida yangi ilmiy natijalar olish hamda ularni funksiyalar nazariyasining dolzarb masalalarini yechishga tadbiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda, ayniqsa, oxirgi yillarda fundamental fanlar, xususan, matematika va fizika, ular bilan bir qatorda tibbiy va geologik tomografiya masalalarida ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlarga e’tibor kuchaydi. Jumladan, so‘nggi yillarda funksiyalar nazariyasi, ko‘p o‘lchovli kompleks analiz, plyuripotensiallar nazariyasi, approksimatsiyalar nazariyasi va kompleks dinamik sistemalar nazariyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi qaralayotgan masalalarning naqadar dolzarbligi va zarurligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda A-analitik funksiyalarni tadqiq qilishda salmoqli ilmiy natijalarga erishildi. “Haqiqiy o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi. Kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi” fanlarining ustivor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi.[1] A-analitik funksiyalar nazariyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish mazkur qaror ijrosini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

Ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789 sonli va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarorlarida, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan masalalarni hal etishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, G. Gryoch, M. A. Lavrent’yev va L. Alforslar tomonidan qurilgan yassi kvazikonform akslantirishlar nazariyasi matematik fizika va mexanikada o‘zining muhim tadbiqlarini topgan va matematikaning Kleyn gruppalari nazariyasi, funksional fazolar va differensial operatorlar kabi sohalari bilan samarali aloqalar o‘rnatgan. 1950-yilda L. Alfors va A. Beringlar tomonidan kiritilgan va B. Fyuglede hamda B. V. Shabatlar tomonidan n-o‘lchamli fazolarga o‘tkazilgan modullar usulining roli oshib bormoqda. Fazoviy kvazikonform akslantirishlar nazariyasi 1938-yilda M. A. Lavrent’yev tomonidan kiritilgan. Tekislikda kvazikonform akslantirishlar nazariyasining rivojlanishi Beltrami tenglamasining yechimi bilan uzviy bog‘liqdir. Kvazikonform akslantirishlar va Beltrami tenglamasi nazariyasining rivojlanishi XX asrning o‘rtalarida amerikalik matematiklar L. Alfors, L. Bers, A. Bering, F. B. Geringlar, rossiyalik matematiklar M. A. Lavrent’yev, I. N. Vekua, P. P. Belinskiy, Yu. G. Reshetnyak, V. I. Miklyukov, V. A. Zorich, P. M. Tamrazov, S. L. Krujkal, A. B. Sichyov, I. P. Mityukov, G. D. Suvorov, V. V. Aseyev, polshalik matematik B. V. Boyarskiylar bilan bevosita bo‘liq.

Mamlakatimizda esa ushbu nazariya L. I. Volkoviskiy, M. Zaxirov, A. Axmedov, G. M. Lyan, A. K. Varisov va boshqalar tufayli rivojlandi. A-analitik funksiyalarning funksional xossalarini tadqiq qilish o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab rivojlana boshlagan va dastlabki natijalar Yu. Srebro, E. X. Yakubov (Isroil), V. I. Ryazanov, V. Gutlyanskiy, D. A. Kovtonyuk, I. V. Petkov, R. R. Salimov (Ukraina), A. N. Kondrashov, A. L. Buxgeym, S. G. Kazansev (Rossiya) va boshqa mashxur olimlarning ishlarida uchraydi. Bu esa kvazikonform akslantirishlar gomeomorfizmlarning geometrik xossalari bilan bog‘liq bo‘lsa, A-analitik funksiyalar uchun esa funksional xossalar, silliqlik, maxsus nuqtalar, qatlamalar va boshqalar muhim ekanligi bilan chambarchas bog‘liq. Bu xossalar tibbiy va geologik tomografiyada qo‘llanilishi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekistonda 2010-yildan boshlab O‘zbekiston Milliy universiteti “Matematik analiz” kafedrasida akademik A. Sadullayev rahbarligi ostida uning shogirdlari N. M. Jabborov, T. O‘. Otaboyev, Sh. Ya. Xursanov va boshqalar A-

analitik funksiyalarning funksional xossalarini tadqiq qilishni boshlashgan: A-analitik va A-garmonik funksiyalar uchun Koshi yadrosi analogi, Shvarts va Puasson formulalari, A-subgarmonik funksiyalar uchun Riss ifodalanishi olingan. Kafedrada tadqiq qilingan yana bir masala bu ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik funksiyalarning funksional xossalarini isbotlashdir. Xususan, ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun Xartogs teoremasining analogini isbotlash masalasi qo‘yilgan edi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston Milliy universitetining OT-F4-(37+29) raqamli “A-analitik funksiyalarning funksional xossalari va ularning qo‘llanilishi. Matritsaviy sohalarda kompleks analizning ba’zi masalalari” nomli ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi kompleks tekislikda va ko‘p o‘lchovli kompleks fazoda A-analitik funksiyalarning funksional xossalarini tadqiq qilish, ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun Xartogs teoremasini isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

A-analitik funksiyalar uchun Koshi teoremasini isbotlash;

A-analitik funksiyalar uchun argument prinsipini va Shvarts lemmasini isbotlash;

ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik va separat A-analitik funksiya tushunchalarini aniqlash, ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun Koshining integral formulasini isbotlash, ularni karrali qatorga yoyish;

ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun Xartogs teoremasi analogini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti. A-analitik funksiyalar, Beltrami tenglamasi, $\mathbb{C}^n$ fazoda Beltrami tenglamalar sistemasi, integral formulalar.

Tadqiqotning predmeti. Beltrami tenglamasi, A-analitik funksiyalar, A-analitik funksiyalar uchun chegirmalar, A-analitik funksiyalar uchun argument prinsipi, Shvarts tengsizligi, ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik funksiyalar, Xartogs teoremasi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida funksiyalar nazariyasi, analitik funksiyalar nazariyasi, klassik potensiallar nazariyasi, plyuripotensiallar nazariyasi, kvazikonform akslantirishlar va A-analitik funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Analitik funksiyalar uchun ma’lum bo‘lgan Koshi teoremasining A-analitik funksiyalar uchun umumlashmasi, shuningdek, ko‘p bog‘lamli sohalar uchun Koshi teoremasi isbotlangan;

A-analitik funksiyalar uchun chegirma tushunchasi kiritilgan, A-analitik funksiyaning yakkalangan maxsus nuqtasidagi chegirmasi va uning shu yakkalangan maxsus nuqta atrofidagi Loran qatoriga yoyilmasi orasidagi bog‘lnishni ifodalovchi teoremalar isbotlangan, chegirmalarni hisoblash uchun formulalar topilgan. A-analitik funksiyalar uchun logarifmik chegirma tushunchasi aniqlanib, A-analitik funksiyalar uchun argument prinsipi isbotlangan;

A-analitik funksiyalar uchun Rushe teoremasi va barcha oʻzgaruvchilari boʻyicha uzluksiz boʻlgan koʻp oʻzgaruvchili A-analitik funksiyalarning barcha oʻzgaruvchilari boʻyicha birgalikda uzluksiz boʻlishini isbotlashda muhim oʻrin tutuvchi Shvarts lemmasi umumlashmasi isbotlangan;

Beltrami tenglamasining koʻp oʻlchamli kompleks fazodagi umumlashmasi boʻlgan Beltrami tenglamalar sistemasining yechimi sifatida koʻp oʻzgaruvchili A-analitik va separat A-analitik funksiya tushunchalari kiritilgan, Beltrami tenglamalar sistemasining yechimi mavjud boʻlish sharti topilgan;

koʻp oʻzgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun karrali Koshi integral formulasi hamda koʻp oʻzgaruvchili A-analitik funksiyalarni karrali qatorga yoyish haqidagi teoremalar, klassik Xartogs toeremasining koʻp oʻzgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun umumlashmasi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dissertatsiya ishida olingan A-analitik funksiyalar uchun Koshining integral formulasi, Shvarts lemmasi va Xartogs teoremasi kabi natijalar elliptik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish hamda matematik fizikaning boshqa boʻlimlarida qoʻllanilishi mumkin. Bundan tashqari, olingan natijalar va qoʻllanilgan usullar oliy oʻquv yurtlarida magistratura talabalari hamda doktorantlar uchun oʻquv kursi sifatida oʻqitilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kompleks oʻzgaruvchili funksiyalar nazariyasi, koʻp oʻlchovli kompleks analiz, A-analitik funksiyalar nazariyasi, algebraning maʼlum usullaridan foydalanilgani va olingan natijalarning qatʼiy matematik isboti bilan berilgani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning A-analitik davom ettirish masalalarida, kvazikonform akslantirishlar nazariyasi va koʻp oʻzgaruvchili A-analitik funksiyalarni Teylor qatoriga yoyishda qoʻllanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kompyuter tomografiyasi, suyuqlikning ishqalanishi hisobi, mexanika va matematik fizikaning turli xil masalalarini yechishda tadbiq qilishda asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. A-analitik funksiyalar nazariyasi boʻyicha olingan natijalar asosida:

A-analitik funksiyalar uchun kiritilgan chegirma tushunchasi, shuningdek, isbotlangan argument prinsipi va Rushe teoremasidan OT-F4-03 raqamli “Uzluksiz hamda diskret vaqtli aniq dinamik sistemalar, qismiy integral operatorlar spektrlari” mavzusidagi fundamental loyihada ikkinchi tur klassik sohadagi meromorf funksiyalarni va maxsus analitik poliedrlarni tadqiq qilishda foydalanilgan (Qarshi Davlat universitetining 2023-yil 17-martdagi 04/1022-sonli maʼlumotnomasi). Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi maxsus analitik poliedrlar uchun Veyl formulasini va matritsaviy poliedrlar uchun Rushe teoremasi analogini isbotlash imkonini bergan;

kiritilgan A-analitik funksiya tushunchasi MRU-OT-9/2017 raqamli “Koʻp oʻlchovli kompleks analiz” mavzusidagil ilmiy loyihada A-garmonik va A-

subgarmonik funksiya tushunchalarini aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 17-martdagi 04/11-1411-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi A-analitik funksiyaning haqiqiy va mavhum qismlari klassik holdagi Laplas tenglamasining umumlashmasini qanoatlantirishini isbotlash, A-garmonik funksiyalar uchun Puasson va Shvarts formulalarini qurishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 12 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi horijiy va 2 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, 11 ta paragrafga bo‘lingan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 76 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Dastlabki ma’lumotlar**” deb nomlangan birinchi bobida A-analitik funksiyalar nazariyasining zarur tushunchalari va yordamchi natijalar keltirilgan. Ushbu dastlabki bobda A-analitik funksiya tushunchasini va bunday funksiyalarning sodda algebraik xossalari keltiriladi. Bundan tashqari, A-analitik funksiyalar uchun klassik Koshi teoremasi analogi isbotlanadi. Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafida A-analitik funksiyalarni tadqiq qilishda muhim rol o‘ynovchi Koshi formulasi keltiriladi. Birinchi bobning oxirgi, beshinchi paragrafida esa A-analitik funksiyalarni Teylor va Loran qatorlariga yoyish keltirilgan.

Aytaylik, D — kompleks tekislik $\mathbb{C} \cong \mathbb{R}^2$ dagi soha bo‘lsin. Agar $z = x + iy$ deyilsa, unda odatdagidek

$$\frac{\partial}{\partial z} = \frac{1}{2}\left(\frac{\partial}{\partial x} + \frac{1}{i}\frac{\partial}{\partial y}\right) \text{ va } \frac{\partial}{\partial \overline{z}} = \frac{1}{2}\left(\frac{\partial}{\partial x} - \frac{1}{i}\frac{\partial}{\partial y}\right).$$

D sohada berilgan $A(z)$ funksiya uchun

$$\mathcal{D}_A = \frac{\partial}{\partial z} - A(z)\frac{\partial}{\partial \bar{z}},\ \overline{\mathcal{D}}_A = \frac{\partial}{\partial \bar{z}} - \overline{A(z)}\frac{\partial}{\partial z}$$

deb olamiz.

1-ta'rif. $f(z) \in C^1(D)$ *funksiya berilgan bo'lsin. Agar ixtiyoriy* $z \in D$ *uchun*

$$\overline{\mathcal{D}}_A f(z) = 0. \tag{1}$$

bo'lsa, u holda $f(z)$ *funksiya* D *sohada A-analitik funksiya deyiladi.*

2-ta'rif. $f(z) \in C^1(D)$ *funksiya berilgan bo'lsin. Agar ixtiyoriy* $z \in D$ *uchun*

$$\mathcal{D}_A f(z) = 0. \tag{2}$$

bo'lsa, u holda $f(z)$ *funksiya* D *sohada A-antianalitik funksiya deyiladi.*

Ta'kidlash kerakki, $A(z) \equiv 0$ bo'lganda biz mos ravishda, analitik va antianalitik funksiyalar ta'riflarini hosil qilamiz.

D sohada A-analitik bo'lgan funksiyalar sinfini $\mathcal{O}_A(D)$ orqali belgilaymiz.

A-analitik funksiyalarning quyidagi algebraik xossalarini qayd etib o'tish lozim: chekli sondagi A-analitik funksiyalarning chiziqli kombinatsiyasi, ikkita A-analitik funksiyaning ko'paytmasi va nisbati (maxraj noldan farqli bo'lgan joylarda) yana A-analitik funksiya bo'ladi. Shuningdek, A-analitik funksiyaning kompleks qo'shmasi A-antianalitik funksiya bo'ladi.

A-analitik funksiyalar va (1) tenglama Beltrami tenglamasi

$$f_{\bar{z}}(z) = A(z) f_z(z) \tag{3}$$

va kvazikonform akslantirishlar bilan bevosita aloqador. Kvazikonform akslantirishlar nazariyasida $A(z)$ funksiya o'lchovli bo'lsin va qaralayotgan $D \subset \mathbb{C}$ sohada deyarli hamma joyda $|A(z)| \le C < 1$ shartni qanoatlantirsin deb faraz qilinadi. Beltrami tenglamasi va kvazikonform akslantirishlar nazariyasi bo'yicha fundamental ishlardan biri V. Gutlyanskiy, V. Ryazanov, Yu. Srebro va E. Yakubovlarning monografiyasi bo'lib, unda Beltrami tenglamasini tadqiq qilishga geometrik yondashuv qaraladi.

A-analitik funksiyalarning dissertatsiya ishida sezilarli darajada foydalaniladigan, ma'lum funksional xossalarini keltirib o'tamiz.

1-teorema. $\mathbb{C}$ *da o'lchovli bo'lgan ixtiyoriy* $A(z) : \|A\|_\infty < 1$ *funksiya uchun* (3) *tenglamaning* $0, 1, \infty.$ *nuqtalarni qo'zg'almas qoldiruvchi yagona gomeomorf yechimi* $\chi(z)$ *mavjud.*

2-teorema. (3) *tenglamaning barcha umumlashgan yechimlari to'plami* $f(z) = \Phi[\chi(z)]$ *formula bilan ifodalanadi, bu yerda* $\chi(z)$ *— 1-teoremadagi gomeomorf yechim, ,* $\Phi(\xi)$ *esa* ξ *o'zgaruvchining* $\chi(D)$ *da golomorf funksiyasi.*

3-teorema. *Agar* $A(z)$ *funksiya* m *marta uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar sinfiga tegishli bo'lsa:* $A(z) \in C^m(D)$, *unda* (3) *tenglamaning ixtiyoriy yechimi* f *kamida shu sinfga tegishli bo'ladi, ya'ni* $f \in C^m(D)$.

A-analitik funksiyalarning funksional xossalarini yanada chuqurroq o'rganish uchun biz $A(z)$ funksiya bir bog'lamli D sohada antianalitik funksiya, ya'ni $\frac{\partial A}{\partial z} = 0$ va $\forall z \in D$ uchun $|A(z)| \le C < 1$ bo'lgan holni qaraymiz.

4-teorema (Koshi teoremasining analogi). *Agar* $f(z)$ *funksiya bir bog'lamli* D *sohada A-analitik bo'lsa, u holda* D *sohada yotuvchi har qanday yopiq silliq* γ *egri chiziq bo'yicha olingan* $\int_\gamma f(z)\left(dz + A(z)d\bar{z}\right)$ *integral nolga teng bo'ladi.*

Bu teorema A-analitik funksiyalar nazariyasining eng muhim teoremalaridan biri hisoblanadi. Ushbu teorema muallifning N. M. Jabborov bilan birga hammualliflikdagi ishida qo'shimcha shart bilan isbotlangan va quyidagicha keltirilgan:

5-teorema. *Aytaylik* $f(z) \in C^1(D) \cap C(\bar{D})$ *— chegaralangan bir bog'lamli* D *sohada A-analitik funksiya bo'lsin. U holda quyidagi tenglik o'rinli*

$$\int_{\partial D} f(z)\left(dz + A(z)d\bar{z}\right) = 0.$$

Xuddi klassik holdagi kabi, ko'p bog'lamli sohalar uchun ham Koshi teoremasi isbotlanadi.

6-teorema. *Aytaylik* $f(z)$ *— chegaralangan chekli bog'lamli* D *sohada A-analitik va uning chagarasi* $\Gamma = \Gamma_1 \cup \Gamma_2 \cup \ldots \cup \Gamma_n$ *da uzluksiz funksiya bo'lsin. U holda*

$$\int_\Gamma f(z)\left(dz + A(z)d\bar{z}\right) = 0$$

bo'ladi.

Faraz qilaylik, $D \subset \mathbb{C}$ — qavariq soha va $\zeta \in D$ uning tayin nuqtasi bo'lsin. Bu sohada

$$\psi(z,\zeta) = z - \zeta + \overline{\int_{\gamma(\zeta,z)} \overline{A}(\tau)d\tau} \text{ va } K(z,\zeta) = \frac{1}{2\pi i}\cdot\frac{1}{\psi(z,\zeta)} = \frac{1}{2\pi i}\cdot\frac{1}{z - \zeta + \overline{\int_{\gamma(\zeta,z)} \overline{A}(\tau)d\tau}}$$

funksiyalarni qaraymiz, bu yerda $\gamma(\zeta, z)$ — $\zeta, z \in D$ nuqtalarni tutashtiruvchi silliq egri chiziq.

7-teorema. *Aytaylik,* $D \subset \mathbb{C}$ *— qavariq soha va* $\zeta \in D$ *uning tayin nuqtasi bo'lsin. U holda* $K(z,\zeta)$ *funksiya* $z = \zeta$ *nuqtadan tashqarida A-analitik bo'ladi,* *ya'ni* $K(z,\zeta)\in\mathcal{O}_A\left(D\setminus\{\zeta\}\right)$. *Bundan tashqari,* $z=\zeta$ *nuqta u uchun yagona oddiy qutb maxsus nuqta bo'ladi.*

1-izoh. *Agar* D *soha qavariq bo'lmasdan faqatgina bir bog'lamli bo'lsa, unda* $\psi(z,\zeta)$ *funksiya* D *sohada aniqlangan va bir qiymatli bo'lishiga qaramasdan, u* ζ *dan boshqa yakkalangan nollarga ega bo'lishi mumkin:* $\psi(z,\zeta)=0$, $\zeta\in P=\{\zeta_1,\zeta_2,...\}$. *Binobarin,* $\psi\in\mathcal{O}_A(D)$, *agar* $\zeta\notin P$ *bo'lsa* $\psi(z,\zeta)\neq 0$ *va* $K(z,\zeta)$ *faqatgina* $D\setminus P$ *da* A*-analitik funksiya bo'ladi va u* P *to'plamning nuqtalarida qutblarga ega bo'ladi. Shu fakt asosida biz qavariq sohalarda* A*-analitik bo'lgan funksiyalar sinfini qaraymiz.*

2-teoremaga ko'ra, $\psi(z,\zeta)\in\mathcal{O}_A(D)$ funksiya ichki akslantirishni amalga oshiradi. Xususan, ushbu

$$\left\{z\in D:\left|\psi(z,\zeta)\right|=\left|z-\zeta+\overline{\int\limits_{\gamma(\zeta,z)}\overline{A}(\tau)d\tau}\right|<r\right\} \tag{4}$$

to'plam D da ochiq bo'ladi. Yetarlicha kichik $r>0$ lar uchun u D da kompakt yotadi va ζ nuqtani o'z ichiga oladi.

3-ta'rif. (4) *ko'rinishdagi to'plamni "markazi"* ζ *nuqtada bo'lgan A-lemniskata deb ataymiz va* $L(\zeta,r)$ *orqali belgilaymiz.*

1-lemma. *Ixtiyoriy* $\varepsilon>0$ *soni uchun* $L(\zeta,\varepsilon)\Subset D$ *A-lemniskataning chegarasi bo'yicha olingan quyidagi integral 1 ga teng:*

$$\int\limits_{\partial L(\zeta,\varepsilon)}K(z,\zeta)(dz+A(z)d\overline{z})=1.$$

Quyidagi teoremada *A*-analitik fuksiyalar uchun Koshining integral formulasi analogi keltiriladi.

8-teorema. *Aytaylik* $f(z)$ — D *sohada A-analitik funksiya va* $G\Subset D$ *chekli sondagi silliq chiziqlar bilan chegaralangan soha bo'lsin. U holda ixtiyoriy* $z\in G$ *nuqtada* $f(z)$ *funksiya quyidagi ko'rinishda tasvirlanadi:*

$$f(z)=\int\limits_{\partial G}f(\zeta)K(z,\zeta)(d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}),$$

bu yerda ∂G — G *sohaning yo'naltirilgan chegarasi*.

Ta'kidlash lozimki, *A*-analitik funksiyalar uchun darajali qatorlaning analogi ushbu

$$\sum_{j=0}^{\infty}c_j\psi^j\left(z,a\right),\ a\in D,\ c_j\text{ — o'zgarmas,} \tag{5}$$

ko'rinishdagi qatordan iborat bo'ladi.

(5) qatorning yaqinlashish sohasi $L\left(a,r\right)=\left\{\left|\psi\left(z,a\right)\right|<r\right\}$ *A*-lemniskatadan iborat bo'lib, yaqinlashish radiusi r quyidagi Koshi—Adamar formulasi orqali topiladi:

$$\frac{1}{r} = \overline{\lim_{j\to\infty}} \sqrt[j]{|c_j|}.$$

8-teoremaga teskari teorema ham o‘rinli.

9-teorema. *Agar* $f(z) \in \mathcal{O}_A\left(L(a,r)\right) \cap C\left(\overline{L}(a,r)\right)$ *bo‘lsa, bu yerda* $L(a,r) = \left\{z \in D : \left|\psi(z,a)\right| < r\right\} \Subset D$ *— A-lemniskata, unda* $L(a,r)$ *da* $f(z)$ *funksiya Teylor qatoriga yoyiladi:*

$$f(z) = \sum_{k=0}^{\infty} c_k \psi^k(z,a),$$

bu yerda $c_k = \dfrac{1}{2\pi i} \displaystyle\int_{\partial L(a,\rho)} \frac{f(\zeta)}{\left[\psi(\zeta,a)\right]^{k+1}} \left(d\zeta + A(\zeta)d\overline{\zeta}\right), 0 < \rho < r, k = 0,1,\dots .$

Bundan tashqari, *A*-analitik funksiyalarni Loran qatoriga yoyish haqidagi quyidagi teorema ham o‘rinli:

10-teorema. *Aytaylik* $f(z)$ *— lemniskataviy halqada A-analitik funksiya bo‘lsin:* $f \in \mathcal{O}_A\left(L(a,R) \setminus L(a,r)\right)$, $0 < r < R$. *U holda* $f(z)$ *funksiya shu halqada Loran qatoriga yoyiladi:*

$$f(z) = \sum_{k=-\infty}^{\infty} c_k \psi^k(z,a), \tag{6}$$

bu yerda Teylor—Loran koeffitsiyentlari quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$c_k = \frac{1}{2\pi i} \int_{\partial L(a,\rho)} \frac{f(\zeta)}{\left[\psi(\zeta,a)\right]^{k+1}} \left(d\zeta + A(\zeta)d\overline{\zeta}\right), r < \rho < R, k = 0, \pm 1, \pm 2, \dots .$$

(6) qator ushbu

$$L(a,R) \setminus \overline{L(a,r)} = \left\{z \in D : r < \left|\psi(z,a)\right| < R\right\}$$

halqaning ichida tekis yaqinlashadi.

Koshi tengsizliklari. Teylor—Loran koeffitsiyentlari uchun quyidagi tengsizliklar o‘rinli:

$$\left|c_k\right| \le \frac{\max\left\{\left|f(z)\right| : z \in \partial L(a,\rho)\right\}}{\rho^k}, r < \rho < R, k = 0, \pm 1, \pm 2, \dots .$$

Loran qatori *A*-analitik funksiyalarning yakkalangan maxsusliklarini tadqiq qilish uchun qulay usul hisoblanadi. Agar a nuqta f funksiyaning yakkalangan maxsus nuqtasi, ya’ni $f \in \mathcal{O}_A\left(0 < \left|\psi(z,a)\right| < R\right), 0 < R$ bo‘lib, f — a nuqtaning biror o‘yilgan atrofida chegaralangan bo‘lsa, unda (6) tenglikda qatorning manfiy darajali hadlari qatnashmaydi: $f(z) = \sum_{k=0}^{\infty} c_k \psi^k(z,a)$ va a nuqta f ning bartaraf qilish mumkin bo‘lgan maxsus nuqtasi bo‘ladi, agar $\lim_{z\to a} f(z) = \infty$ bo‘lsa, unda (6) tenglikdagi qatorda chekli sondagi manfiy darajali hadlar bo‘ladi:

$$f(z)=\sum_{k=-m}^{\infty} c_k \psi^k(z,a), m>0, c_{-m}\neq 0 .$$

Bu holda a nuqta m tartibli qutb deyiladi. Birgina $\lim_{z\to a} f(z)$ mavjud bo‘lmaydigan holat qolmoqda. Bu holda a nuqta $f(z)$ funksiyaning o‘ta muhim maxsus nuqtasi deyiladi.

Dissertatsiya ishining “**Tekislikda *A*-analitik funksiyalarning geometrik xossalari”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobi uchta paragrafdan iborat, *A*-analitik funksiyalar uchun chegirma tushunchasi kiritilgan va chegirmalarning xossalari o‘rganilgan, *A*-analitik funksiyalarning yakkalangan maxsus nuqtalari tadqiq qilingan, *A*-analitik funksiyalar uchun argument prinsipi va Rushe teoremasi analogi isbotlangan.

4-ta’rif. *A-analitik $f(z)$ funksiyaning a nuqtadagi chegirmasi deb $f(z)$ funksiyadan yetarlicha kichik A-lemniskata $L(a,r)$ ning chegarasi bo‘yicha olingan integralni $2\pi i$ ga bo‘linganiga aytamiz:*

$$\operatorname*{res}_{z=a}{}_A f(z):=\frac{1}{2\pi i}\cdot \oint_{\partial L(a,r)} f(\zeta)\left(d\zeta+A(\zeta)d\bar{\zeta}\right). \tag{7}$$

Qayd etish kerakki, ko‘p bog‘lamli sohalar uchun Koshi teoremasiga ko‘ra, (7) tenglikdagi integral r ga bog‘liq emas. Ushbu chegirmalar haqidagi Koshi teoremasining analogi o‘rinli:

11-teorema. *Aytaylik $f(z)$ — D sohada yakkalangan maxsus nuqtalar to‘plamidan tashqari hamma yerda A-analitik funksiya bo‘lsin, $G\Subset D$ soha, uning chegarasi ∂G bo‘lakli silliq va $f(z)$ ning maxsus nuqtalarini o‘zida saqlamasin. U holda*

$$\oint_{\partial G} f(\zeta)\left(d\zeta+A(\zeta)d\bar{\zeta}\right)=2\pi i\sum_{(G)}\operatorname*{res}_{z=a_\nu}{}_A f(z),$$

bu yerda yig’indi $f(z)$ funksiyaning G sohada yotuvchi barcha a_ν maxsus nuqtalari bo‘yicha olinadi.

Aytaylik $f(z)$ funksiya $z=a$ nuqtada yakkalangan maxsus nuqtaga ega va

$$f(z)=\sum_{k=-\infty}^{\infty} c_k\left(z-a+\overline{\int_{\gamma(a,z)} \overline{A(\tau)}d\tau}\right)^k=\sum_{k=-\infty}^{\infty} c_k\psi^k(z,a) \tag{8}$$

uning Loran qatoriga yoyilmasi bo‘lsin.

12-teorema. *$f(z)$ A-analitik funksiyaning $a\in\mathbb{C}$ yakkalangan maxsus nuqtadagi chegirmasi uning* (8) *Loran qatoriga yoyilmasidagi $\psi(z,a)$ ning minus birinchi darajasi oldidagi koeffitsiyentga teng:*

$$\operatorname*{res}_{z=a}{}_A f(z)=c_{-1}.$$

5-ta’rif. *Agar $f(z)$ A-analitik funksiyani*

$$f(z)=\left(z-a+\overline{\int_{\gamma(a,z)}\overline{A(\tau)}d\tau}\right)^n\cdot g(z)$$

ko'rinishda ifodalash mumkin bo'lsa, bu yerda $g(a)\neq 0$ *va* $g(z)\in\mathcal{O}_A(D)$*, u holda* $z=a$ *nuqta* $f(z)$ *funksiyaning* $n\geq 0$ *tartibli noli deyiladi.*

6-ta'rif. *Agar* $z=a$ *nuqta* $\dfrac{1}{f(z)}$ *funksiyaning* n *tartibli noli bo'lsa, unda u* $f(z)$ *A-analitik funksiyaning* n *tartibli qutbi deyiladi.*

13-teorema. $f(z)$ *A-analitik funksiyaning* $a\in\mathbb{C}$ *yakkalangan maxsus nuqtasi* n *tartibli qutb maxsus nuqta bo'lishi uchun* a *nuqtaning* $L(a,r)$ *lemniskatik atrofidagi Loran qatoriga yoyilmasining bosh qismi chekli sondagi noldan farqli hadlarni o'z ichida saqlashi, ya'ni*

$$f(z)=\sum_{k=-n}^{\infty}c_k\left(z-a+\overline{\int_{\gamma(a,z)}\overline{A(\tau)}d\tau}\right)^k,\ n\geq 1.$$

bo'lishi zarur va yetarli.

14-teorema. *Aytaylik,* $z=a$ *nuqta A-analitik* $f(z)$ *funksiyaning* n *tartibli noli bo'lsin. U holda quyidagi formula o'rinli:*

$$\underset{z=a}{res_A}\,f(z)=\frac{1}{(n-1)!}\lim_{z\to a}\frac{\partial^{n-1}}{\partial z^{n-1}}\left[f(z)\left(z-a+\overline{\int_{\gamma(a,z)}\overline{A(\tau)}d\tau}\right)^n\right].$$

Endi A-meromorf funksiya, A-analitik funksiyalar uchun A-logarifmik chegirma tushunchalari kiritiladi, A-analitik funksiyalar uchun argument prinsipi va Rushe teoremasining analogi isbotlanadi.

7-ta'rif. *D sohada qutb maxsus nuqtalardan boshqa maxsusliklarga ega bo'lmagan* $f(z)$ *A-analitik funksiyaga shu sohada A-meromorf funksiya deyiladi. A-meromorf funksiyalar sinfini* $\mathcal{M}_A(D)$ *orqali belgilaymiz.*

Aytaylik, $f\in\mathcal{O}_A\left(0<|\psi(z,a)|<R\right),\ 0<R$ va $f(z)$ funksiya a nuqtaning o'yilgan atrofida nolga aylanmasin. $f(z)$ A-analitik funksiyaning quyidagi

$$\frac{\dfrac{\partial f(z)}{\partial z}}{f(z)}\left(dz+A(z)d\bar{z}\right)=dLnf(z)$$

logarifmik hosilasining chegirmasini uning a nuqtadagi A-logarifmik chegirmasi deb ataymiz. Quyidagi munosabat o'rinli:

$$d\left(Lnf(z)\right)=\frac{1}{f(z)}\left(\frac{\partial f}{\partial z}dz+\frac{\partial f}{\partial\bar{z}}d\bar{z}\right)=\frac{1}{f(z)}\left(\frac{\partial f}{\partial z}dz+A\frac{\partial f}{\partial z}d\bar{z}\right)=$$

$$=\frac{\frac{\partial f(z)}{\partial z}}{f(z)}\left(dz+A(z)d\bar{z}\right).$$

Aytaylik, $a\in\mathbb{C}$ nuqta $f(z)$ A-analitik funksiyaning n tartibli noli bo‘lsin. U holda a nuqtaning biror A-lemniskatik atrofi $L(a,r)$ da $f(z)=\psi(z,a)^n h(z)$ tenglik o‘rinli, bu yerda $h(z)\in\mathcal{O}_A(D), h(a)\neq 0$. Shuning uchun $L(a,r)$ A-lemniskatada

$$\frac{\frac{\partial f(z)}{\partial z}}{f(z)}=\frac{n}{\psi(z,a)}+\frac{\frac{\partial h(z)}{\partial z}}{h(z)}$$

tenglik o‘rinli. Agar $b\in\mathbb{C}$ — $f(z)$ funksiyaning m tartibli noli bo‘lsa, u holda $f(z)=\frac{g(z)}{\psi^n(z,b)}$ bo‘lib, bu yerda $g(z)\in\mathcal{O}_A(D), g(b)\neq 0$. Shuning uchun $L(b,r)$ A-lemniskatada quyidagi tenglik o‘rinli:

$$\frac{\frac{\partial f(z)}{\partial z}}{f(z)}=\frac{\frac{\partial g(z)}{\partial z}}{g(z)}-\frac{m}{\psi(z,b)}.$$

15-teorema. *Aytaylik, $f(z)$ funksiya $D\subset\mathbb{C}$ sohada A-meromorf, $G\Subset D$ esa chegarasi ∂G silliq egri chiziq bo‘lgan va ∂G $f(z)$ funksiyaning nollarini ham qutblarini ham saqlamaydigan soha bo‘lsin. U holda quyidagi tenglik o‘rinli:*

$$N-P=\frac{1}{2\pi}\int_{\partial G}\frac{\frac{\partial f(z)}{\partial z}}{f(z)}\left(dz+A(z)d\bar{z}\right),$$

bu yerda N va P lar mos ravishda $f(z)$ funksiyaning G sohadagi nollari va qutblari soni, ∂G — yo‘naltirilgan chegara.

16-teorema (argument prinsipi). *Aytaylik, $f(z)$ funksiya $D\subset\mathbb{C}$ sohada A-analitik bo‘lib, $G\Subset D$ — chegarasi ∂G silliq chiziq bo‘lgan, $f(z)$ funksiyaning nollarini ham, qutb maxsus nuqtalarini ham o‘zida saqlamaydigan soha bo‘lsin. U holda*

$$N-P=\frac{1}{2\pi}\Delta_{\partial G}\arg f(z),$$

bo‘ladi, bu yerda N va P lar mos ravishda $f(z)$ funksiyaning nollari va qutblari soni, ∂G — yo‘naltirilgan chegara.

Ushbu argument prinsipidan foydalanib, xuddi klassik holdagi kabi quyidagi tasdiqni hosil qilamiz.

17-teorema (Rushe teoremasi analogi). *Aytaylik,* $f(z)$ *va* $g(z)$ *funksiyalar silliq chegarali yopiq* $\overline{G}$ *sohaning biror atrofida A-analitik funksiyalar bo'lsin va barcha* $z \in \partial G$ *lar uchun ushbu*

$$|f(z)| > |g(z)|$$

tengsizlik o'rinli bo'lsin. U holda $f(z)$ *va* $f(z)+g(z)$ *funksiyalar* G *da bir xil sondagi nollarga ega bo'ladi.*

Ma'lumki, Shvarts tengsizligi analitik funksiyalar geometrik nazariyasi, konform izomorfizmlar nazariyasi, approksimatsiyalar nazariyasi, uzluksizlik modullarini baholashda, variatsion masalalar kabi masalalarda ko'p sonli tadbiqlarga ega. Dissertatsiya ishida *A*-analitik funksiyalar uchun Shvarts lemmasi hamda undan kelib chiqadigan natijalar isbotlangan bo'lib, ushbu natijalardan uchinchi bobning asosiy natijasini isbotlash uchun foydalaniladi.

2-lemma (Shvarts lemmasi analogi). *Faraz qilaylik,* $f \in \mathcal{O}_A\left(L(a,R)\right)$, $|f(z)| \le M$ *va* $f(a)=0$ *bo'lsin. U holda barcha* $z \in L(a,R)$ *lar uchun quyidagi tengsizlik o'rinli*

$$|f(z)| \le \frac{M}{R}|\psi(z,a)|.$$

1-natija. *Aytaylik,* $f \in \mathcal{O}_A\left(L(a,R)\right)$, $|f(z)| \le M$ *va*

$$f(a) = \frac{\partial f}{\partial z}(a) = \frac{\partial^2 f}{\partial z^2}(a) = ... = \frac{\partial^{n-1} f}{\partial z^{n-1}}(a) = 0$$

bo'lsin. U holda barcha $z \in L(a,R)$ *lar uchun quyidagi tengsizlik o'rinli*

$$|f(z)| \le \frac{M}{R^n}|\psi(z,a)|^n.$$

2-natija. *Aytaylik,* $f \in \mathcal{O}_A\left(L(a,R)\right)$, $|f(z)| \le M$ *va* $b \in L(a,R)$ *uchun* $f(b)=0$ *bo'lsin. U holda barcha* $z \in L(a,R)$ *lar uchun quyidagi tengsizlik o'rinli*

$$|f(z)| \le MR\left|\frac{\psi(z,a)-\psi(b,a)}{R^2-\overline{\psi}(b,a)\psi(z,a)}\right|.$$

Dissertatsiyaning **"Separat *A*-analitik funksiyalar"** deb nomlangan uchinchi bobida $\mathbb{C}^n$ fazodagi Beltrami tenglamalar sistemasining yechimi sifatida ko'p o'zgaruvchili *A*-analitik va separat *A*-analitik funksiyalar ta'riflanadi. Beltrami tenglamalar sistemasi har doim yechimga ega bo'ladigan shart keltirilgan. Ko'p o'zgaruvchili *A*-analitik funksiyalar uchun Koshining integral formulasi analogi, ko'p o'zgaruvchili *A*-analitik funksiyalarni karrali qatorga yoyish haqidagi teorema isbotlangan. Ko'p o'zgaruvchili *A*-analitik funksiyalar uchun Xartogs teoremasi analogi isbotlangan.

Ko'p o'lchovli kompleks fazodagi biror $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada Beltrami tenglamasining analogi quyidagi tenglamalar sistemasi bo'ladi

$$\frac{\partial f(z)}{\partial \overline{z}} = A(z)\frac{\partial f(z)}{\partial z}, \ z \in D, \tag{9}$$

bu yerda

$$z=\left(z_1,z_2,...,z_n\right),\ A(z)=\left(A_{jk}(z)\right)_{j,k=\overline{1,n}},$$

$$\frac{\partial f(z)}{\partial \overline{z}}=\begin{pmatrix}\dfrac{\partial f(z)}{\partial \overline{z}_1}\\ \dfrac{\partial f(z)}{\partial \overline{z}_2}\\ \vdots\\ \dfrac{\partial f(z)}{\partial \overline{z}_n}\end{pmatrix},\ \frac{\partial f(z)}{\partial z}=\begin{pmatrix}\dfrac{\partial f(z)}{\partial z_1}\\ \dfrac{\partial f(z)}{\partial z_2}\\ \vdots\\ \dfrac{\partial f(z)}{\partial z_n}\end{pmatrix}.$$

Umumiy holda (9) tenglamalar sistemasining yechimini topish va uni tadqiq qilish juda murakkab masala hisoblanadi. Yana shuni ham qayd etish kerakki, umumiy holda, (9) tenglamalar sistemasi yechimga ega bo‘lmasligi mumkin. (9) tenglamalar sistemasining yechimi mavjud bo‘lishi uchun bir qator shartlar bajarilishi talab etiladi.

Biz ixtiyoriy $n\geq 2$ uchun ko‘p o‘lchovli holda ham $A(z)$ ni antianalitik deb faraz qilamiz, $\overline{A}(z)\in\mathcal{O}(D)$, $\|A(z)\|\leq C<1$, $z\in D$, bu yerda $\|A(z)\|=\max\limits_{j,k}\left|A_{jk}(z)\right|$ — norma. Xususiy holda $A(z)=\left(A_{jk}(z)\right)_{j,k=\overline{1,n}}$ matritsa diagonal ko‘rinishga ega bo‘lganda (9) sistemani, aynan ushbu

$$\begin{cases}\dfrac{\partial f}{\partial \overline{z}_1}=A_1(z)\dfrac{\partial f}{\partial z_1}\\ \dfrac{\partial f}{\partial \overline{z}_2}=A_2(z)\dfrac{\partial f}{\partial z_2}\\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\\ \dfrac{\partial f}{\partial \overline{z}_n}=A_n(z)\dfrac{\partial f}{\partial z_n}\end{cases}\tag{10}$$

ko‘rinishdagi sistemani o‘rganish yanada qiziqarliroq hisoblanadi. Bu yerda $A_j(z)$ funksiyalar $D\subset\mathbb{C}^n$ sohada antianalitik funksiyalar bo‘lib, $\|A\|_D\leq C<1$. Bu holda (10) tenglamalarning $D\subset\mathbb{C}^n$ sohada haqiqiy analitik bo‘lgan yetarlicha keng sinfi mavjud bo‘ladi.

18-teorema. *Aytaylik* $D\subset\mathbb{C}^n$ *sohada aniqlangan* $A_1(z),\ A_2(z),...,A_n(z)$ *funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:* $\overline{A}(z)\in\mathcal{O}(D)$, $\|A(z)\|\leq C<1$, $z\in D$ *va*

$$\frac{\partial \overline{A}_k}{\partial z_j}=\frac{\partial \overline{A}_j}{\partial z_k}\left(yoki\ \frac{\partial A_k}{\partial \overline{z}_j}=\frac{\partial A_j}{\partial \overline{z}_k}\right),\ j,k=1,2,...,n.$$

u holda (10) sistema yechimga ega bo‘ladi.

8-ta'rif. *Agar $D\subset\mathbb{C}^n$ sohada uzluksiz differensiallanuvchi bo'lgan ko'p o'zgaruvchili $f(z)$ funksiya shu sohada (10) tenglamalar sistemasini qanoatlantirsa, unda u D sohada A-analitik funksiya deyiladi.*

9-ta'rif. *Agar ko'p o'zgaruvchili $f(z)$ funksiya fiksirlangan $\left(z_1^0,...,z_{j-1}^0,z_{j+1}^0,...,z_n^0\right)$ o'zgaruvchilarda z_j $(j=\overline{1,n})$ o'zgaruvchi bo'yicha $D\bigcap\left\{z_1=z_1^0,...,z_{j-1}=z_{j-1}^0,z_{j+1}=z_{j+1}^0,...,z_n=z_n^0\right\}$ to'plamda ushbu*

$$\frac{\partial f\left(z_1^0,...,z_{j-1}^0,z_j,z_{j+1}^0,...,z_n^0\right)}{\partial\overline{z}_j}=$$

$$=A_j\left(z_1^0,...,z_{j-1}^0,z_j,z_{j+1}^0,...,z_n^0\right)\frac{\partial f\left(z_1^0,...,z_{j-1}^0,z_j,z_{j+1}^0,...,z_n^0\right)}{\partial z_j}$$

tenglamani qanoatlantirsa, unda u z_j o'zgaruvchi bo'yicha separat A-analitik funksiya deyiladi.

Ko'rinib turibdiki, agar $f(z)$ funksiya A-analitik bo'lsa, unda u har bir o'zgaruvchisi bo'yicha alohida separat A-analitik bo'ladi. Separat analitik funksiyalar uchun ($A\equiv 0$ bo'lgan hol) bizga yaxshi ma'lum bo'lgan Xartogs teoremasi o'rinli: separat analitik $f(z_1,...,z_n)$ funksiya barcha o'zgaruvchilari bo'yicha birvarakayiga analitik bo'ladi. Tabiiy savol tug'iladi: A-analitik funksiyalar uchun ham Xartogs teoremasi o'rinlimi, ya'ni funksiyaning separat A-analitik ekanligidan uning barcha o'zgaruvchilari bo'yicha birgalikda A-analitik bo'lishi kelib chiqadimi? Qo'yilgan savolga uchinchi bobning uchinchi paragrafida A-analitik funksiyalar uchun Xartogs teoremasi analogi ko'rinishida javob beriladi.

Aytaylik $D\subset\mathbb{C}^n$ soha bo'lsin. Umumiylikka zarar yetkazmasdan, $0\in D$ deb hisoblash mumkin. $U=\left\{z\in\mathbb{C}^n:\left|z_j\right|<r_j, j=1,2,...,n\right\}\Subset D$ orqali markazi koordinatalar boshida bo'lgan $r=\left(r_1,r_2,...,r_n\right)$ vektor radiusli polikrugni belgilab olamiz.

19-teorema. *U da A-analitik va $\overline{U}$ da uzluksiz bo'lgan har qanday $f(z)=f\left(z_1,z_2,\ldots,z_n\right)$ funksiya $z=\left(z_1,z_2,\ldots,z_n\right)\in U$ nuqtada Koshining karrali integrali ko'rinishida tasvirlanadi:*

$$f(z)=\frac{1}{(2\pi i)^n}\int\limits_{\Gamma}\frac{f\left(\zeta_1,...,\zeta_{n-1},\zeta_n\right)\left(d\zeta_1+A_1\left(\zeta_1,...,\zeta_{n-1},\zeta_n\right)d\overline{\zeta}_1\right)\wedge...\wedge}{\left(\zeta_1-z_1+\overline{\int\limits_{\gamma\left(z_1,\zeta_1\right)}\overline{A}_1\left(\tau_1,\zeta_2,...,\zeta_{n-1},\zeta_n\right)d\tau_1}\right)\times...\times}$$

$$\frac{\wedge\left(d\zeta_{n-1}+A_{n-1}\left(z_1,\dots,z_{n-2},\zeta_{n-1},\zeta_n\right)d\overline{\zeta}_{n-1}\right)\wedge}{\times\left(\zeta_{n-1}-z_{n-1}+\overline{\int\limits_{\gamma\left(z_{n-1},\zeta_{n-1}\right)}\overline{A}_{n-1}\left(z_1,\dots,z_{n-2},\tau_{n-1},\zeta_n\right)d\tau_{n-1}}\right)\times}$$

$$\frac{\wedge\left(d\zeta_n+A_n\left(z,\zeta_n\right)d\overline{\zeta}_n\right)}{\times\left(\zeta_n-z_n+\overline{\int\limits_{\gamma\left(z_n,\zeta_n\right)}\overline{A}_n\left(z,\tau_n\right)d\tau_n}\right)},$$

bu yerda $\gamma\left(z_j,\zeta_j\right)$ *—* z_j *va* ζ_j *nuqtalarni tutashtiruvchi ixtiyoriy silliq yoki bo'lakli-silliq yassi egri chiziq,* Γ *—* U *polikrugning ostovi, ya'ni* $\gamma_j=\left\{\left|z_j\right|=r_j\right\}$, $j=\overline{1,n}$ *chegaraviy aylanalarning ko'paytmasi.*

2-izoh. *19-teoremaning isbotidan ko'rinadiki,* $f\left(z\right)$ *funksiyani Koshining karrali integrali ko'rinishida ifodalash uchun* $f\left(z\right)$ *ning har bir o'zgaruvchisi bo'yicha separat A-analitikligi va barcha o'zgaruvchilari bo'yicha birgalikda uzluksizligi yetarli bo'ladi (*f *ning barcha o'zgaruvchilari bo'yicha birgalikda differensiallanuvchiligi talab etilmaydi).*

20-teorema. *Agar* $f(z)$ *funksiya* U *da separat A-analitik va* $\overline{U}$ *da uzliksiz bo'lsa, unda u har bir* $z\in U$ *nuqtada quyidagi karrali qator ko'rinishida ifodalanadi:*

$$f\left(z\right)=\sum_{|k|=0}^{\infty}c_k\left(z_1+\overline{\int\limits_{\gamma\left(0,z_1\right)}\overline{A}_1\left(\tau_1,\zeta_2,\dots,\zeta_{n-1},\zeta_n\right)d\tau_1}\right)^{k_1}\times\dots\times$$

$$\left(z_{n-1}+\overline{\int\limits_{\gamma\left(0,z_{n-1}\right)}\overline{A}_{n-1}\left(z_1,\dots,z_{n-2},\tau_{n-1},\zeta_n\right)d\tau_{n-1}}\right)^{k_{n-1}}\times$$

$$\times\left(z_n+\overline{\int\limits_{\gamma\left(0,z_n\right)}\overline{A}_n\left(z,\tau_n\right)d\tau_n}\right)^{k_n},$$

qatorning c_k *koeffitsiyentlari quyidagicha bo'ladi:*

$$c_k=\frac{1}{\left(2\pi i\right)^n}\int\limits_{\Gamma}\frac{f\left(\zeta_1,\dots,\zeta_{n-1},\zeta_n\right)\left(d\zeta_1+A_1\left(\zeta_1,\dots,\zeta_{n-1},\zeta_n\right)d\overline{\zeta}_1\right)\wedge}{\left(\zeta_1+\overline{\int\limits_{\gamma\left(0,\zeta_1\right)}\overline{A}_1\left(\tau_1,\zeta_2,\dots,\zeta_{n-1},\zeta_n\right)d\tau_1}\right)^{k_1+1}}\times$$

$$\times\ldots\times\frac{\wedge\left(d\zeta_{n-1}+A_{n-1}\left(z_1,\ldots,z_{n-2},\zeta_{n-1},\zeta_n\right)d\overline{\zeta}_{n-1}\right)\wedge}{\left(\zeta_{n-1}+\overline{\int\limits_{\gamma\left(0,\zeta_{n-1}\right)}\overline{A}_{n-1}\left(z_1,\ldots,z_{n-2},\tau_{n-1},\zeta_n\right)d\tau_{n-1}}\right)^{k_{n-1}+1}}\times$$

$$\times\frac{\wedge\left(d\zeta_n+A_n\left(z,\zeta_n\right)d\overline{\zeta}_n\right)}{\left(\zeta_n+\overline{\int\limits_{\gamma\left(0,\zeta_n\right)}\overline{A}_n\left(z,\tau_n\right)d\tau_n}\right)^{k_n+1}}.$$

Demak, $f\left(z\right)=f\left(z_1,z_2,\ldots,z_n\right)$ A-analitik funksiyani karrali integral ko‘rinishida ifodalash va uni karrali qatorga yoyish uchun uning chegaralangan bo‘lishi yetarli ekan.

3-lemma. *Agar* $f\left(z\right)=f\left(z_1,z_2,...,z_n\right)$ *funksiya* $U=U\left(a,r\right)$ *polikrugda barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha separat A-analitik va* U *da chegaralangan bo‘lsa, unda u shu polikrugning har bir nuqtasida barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha birgalikda uzluksiz bo’ladi.*

Aytib o‘tilganlar asosida biz ko‘p o‘zgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun Xartogs teoremasi isbotini hosil qilamiz.

21-teorema (Xartogs teoremasi analogi). *Agar* $f\left(z\right)$ *funksiya* $D\subset\mathbb{C}^n$ *sohada barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha separat A-analitik va chegaralangan bo‘lsa, unda u barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha birgalikda A-analitik, ya’ni u uzluksiz differensiallanuvchi va A-analitik bo‘ladi.*

3-izoh. *21-teoremadagi funksiyaning chegaralanganlik sharti ortiqcha bo‘lishi mumkin. Ammo dissertatsiyada keltirilgan isbotlash usulida bu shartdan foydalaniladi.*

XULOSA

Umuman olganda, dissertatsiyada olingan natijalar dissertatsiya ishining maqsadiga erishilganligi haqida gapirish imkonini beradi. Barcha asosiy natijalar yangi va birgalikda A-analitik funksiyalar nazariyasi rivojiga ma'lum bir hissa qo'shadi. Dissertatsiya ishi kompleks tekislikda A-analitik funksiyalarning funksional xossalarini o'rganish, $\mathbb{C}^n$ fazoda ko'p o'zgaruvchili A-analitik funksiya tushunchasini kiritish va bunday funksiyalarni tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Antianalitik $A(z)$ funksiyalar uchun Koshi teoremasi C^1-silliqlikni talab qilmasdan isbotlandi.

2. A-analitik funksiyalar uchun chegirma tushunchasi kiritildi, chegirmalarni hisoblash formulalari topildi. A-analitik funksiyalar chegirmasi uchun Koshi teoremasining analogi isbotlandi.

3. A-analitik funksiyalar chegirmasi va ularning yakkalangan maxsus nuqta atrofidagi Loran qatoriga yoyilmasi o'rtasida munosabat o'rnatildi. A-meromorf funksiya, A-analitik funksiyalar uchun A-logarifmik chegirma tushunchalari kiritilib, ularning xossalari tadqiq qilindi.

4. A-analitik funksiyalar uchun argument prinsipi, Rushe teoremasi analogi va Shvarts lemmasi isbotlandi.

5. Ko'p o'zgaruvchili A-analitik va separat A-analitik funksiya tushunchalari kiritildi. Beltrami tenglamalar sistemasi har doim yechimga ega bo'ladigan shart topildi. Ko'p o'zgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun karrali Koshi integral formulasi isbotlandi. Ko'p o'zgaruvchili A-analitik funksiyalarni qatorga yoyish haqidagi teorema isbotlandi. Ko'p o'zgaruvchili A-analitik funksiyalar uchun funksiya chegaralangan bo'lgan holda Xartogs teoremasi o'rinli bo'lishi isbotlandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ОТАБОЕВ ТОЛИБ УРОЛОВИЧ

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ СВОЙСТВА *A*-АНАЛИТИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ

01.01.01 – Математический анализ

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2022.3.PhD/FM745.

Диссертация выполнена в национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу http://ik-fizmat.nuu.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу http://www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	**Садуллаев Азимбай** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Имомкулов Севдиер Акрамович** доктор физико-математических наук, профессор
	Имомназаров Холматжон Худойназарович доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	**Холонский технологический институт (Израиль)**

Защита диссертации состоится «15» июня 2023 года в 10:00 на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21 e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (зарегистрирована за №__). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «__» __________ 2023 года.
(протокол рассылки №__ от «__» __________ 2023 года).

Б. А. Шоимкулов
Заместитель председателя Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

Н. К. Мамадалиев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.ф.-м.н. (PhD)

Р. Н. Ганиходжаев
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

